

**SHERIY MATNLARNI TARJIMA QILISHDA SHE'RIY TARJIMANING  
XUSUSIYATLARI**

**Toirova N.I**

*F.f.f.d., dotsent Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti dekani*

**Shokirova Dilnavoz Inomovna**

*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarjimonlik, to'g'ri tarjima qilish va she'riy tarjimaning xususiyatlari tahlil qilingan. She'riy tarjimaning boshqa tarjimalardan farq qilishi tadqiq etilgan. She'riy tarjimada o'ta muhim bo'lgan ijodkorlik va so'z qo'llash mahorati ushbu maqolaning tahlil markazini tashkil etadi. Bundan tashqari ohangdorlik va ruhiyatni saqlay olish masalasiga katta e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy asar, she'riyat, tarjima, tarjimon, she'r, she'riy matn, qofiya, ritm, bayt.*

**KIRISH.**

Tarjima – forscha «tarzabon» so'zidan arabiylik o'zgargan. («tarzabon» - chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma'noni anglatadi). Arab tiliga «tarjimon» shaklida o'tgan, undan «tarjima» yoki «tarjuma» hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani ag'darish, o'girish singari atamalar bilan ifoda etganlar.

Tarjima bu bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi bo'lib tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishidir. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirgacha ham saklanib kelgan va bu hozirgi davr tarjimonlar faoliyatida o'z aksini topadi.[1]

Tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning eng faol, eng ommalashgan va eng mahsuldor formasidir. "Tarjima do'stlik ilmidir, tarjima uzoqni yaqin qiladi, tarjima o'zгани birodar, tanishni qardon, do'stni qarindosh qiladi". Ayni paytda, tarjima – san'at. San'atning oddiy turlaridan emas. Tarjima sehrgarlik san'atidir. Tarjima ijod ahli uchun darsxonasi keng bo'lgan "adabiy tahsil, mahorat maktabidir". Shuning uchun jahon adabiyoti tarixida, uning boyishi, yangi-yangi asarlar evaziga mazmundor bo'lishida tarjima va tarjimonlarning ulushi benihoya salmoqli. Ko'ngillar aro ko'prik vazifasini o'tayotgan tarjima – adabiy aloqa va o'zaro ta'sir tarixida ham nurli sahifalarini tashkil etadi. Necha yuz yillar davomida tarjima tufayli bir adabiyotda paydo bo'lgan asar jahon kezadi, millionmillion qalblarga shavqu surur, estetik zavq bag'ishlaydi, ma'naviy oziq beradi, ajoyib va original

asarlarning bunyodga kelishida ijobiy hissa qo`shadi. Hofiz va Sa`diy, Jomiy va Navoiy she`riyati bilan G`arbni, Shekspir va Bal`zak, Dante va Gyotening mo`jizakor asarlari bilan Sharq kitobxonlarini ham oshno etgan, ular qalbida junbish uyg`otgan, badiiy so`z san`atining qudrat va quvvatini namoyish etgan ham ana o`sha tarjimadir.[2]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

So`ngi yillar ichida O`zbekistonda tarjima nazaryasi va amaliyoti rivojlandi. Jahon adabiyotining shoh asarlarini o`zbek tiliga va aksincha o`zbek adabiyotining shoh asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish an`anasi, ko`plab tilshunoslarni va tarjimonlarni tarjima nazaryasi bilan jiddiy shug`ullanishga chorladi. O`zbek tarjimonligi sohasidagi mazkur shart sharoitlar yanada oldinga odimlashga chorlayapti. Bunda chet tili asarlarini o`zbek tiliga to`g`ridan-to`g`ri tarjima qilish ko`zda tutilmoqda. Badiiy tarjima san`ati asosi mazmun va shaklning yaxlitligini saqlash asl va nusxa ruhini to`la yetkazish bilan chambarchas bog`liqdir. Tarjimon asl nusxaning mazmun va shaklning badiiy estetik butunligini tiklashga erishishi kerak. "Kontekst" har safar so`zning mohiyatini aniqlashtirishda uning atrofida boshqa birliklarini mavjud qilishda muhim ahamiyat kasb yetadi.[2] Asl nusxaga bo`lgan e`tiborsizlik va rus tiliga bog`lanib qolish so`zma so`z tarjimaga olib keladi. Masalan, O.Genrining "Qirtishlangan bo`ri" asaridagi "squel-squel to the police" rus tilida "karaul polisiya" undov so`zi bilan almashtirilib mos tarjimaga erishiladi. Lekin o`zbek tilida "karaul" so`zi tarjimon orqali boshqa ma`noda ko`rsatilishi so`z asl mohiyatining yo`qolishiga olib keladi: "If he get the money, you can squeal to the police". // "Если ему удастся заполучит твои денежки, ты вопиш:караул, полиция // "Basharti u Sening pullaringni olib qo`yishga muyassar bo`lsa, darrov: - Qorovul! Politsiya, - deb baqirasan!" Bu misolda rus tilida berilayotgan "караул" so`zi o`zbek tarjimoni tomonidan noto`g`ri talqin qilinishi natijasida, "qorovul, qo`riqchi" kabi ma`no ko`chishi sodir bo`lmoqda. Aslida rus tilida bu so`z undov so`zga aylanib ketgan bo`lib, biror baloga uchragan odam xavf-xatarni sezgan vaqti ushbu iborani boshqa odamlarning e`tiborini tortib, yordamga chaqirish uchun qo`llaniladi. Shuning uchun ham, o`zbek tiliga bu so`zni "Voy dod! dod!" deb tarjima qilish maqsadga muvofiqroq bo`lardir. Tarjimon har doim kontekst ma`noning tarjimada aks ettirilishini inobatga olishi kerak. Yoki shu kabi tushunmovchilikka sabab bo`ladigan boshqa bir tarjimoni ham misol qilib ko`rsatish mumkin: And that afternoon Sue came to the bed where Johnsy lay, contentedly knitting a very blue and very useless woolen shoulder scarf. // В тот же вечер Сю подошла к кровати где лежала Джонси, с удовольствием довязывая ярко-синий, совершенно бесполезный шарф.// Jonsi hozir unga mutlaqo kerak bo`lmagan, och-havo rang sharfni zo`r hafsala bilan bo`yniga bog`lamoqda edi. [3]Tarjimadan shu narsa ma`lum bo`lmoqdaki, tarjimon asarning asliyat nusxasini ochib ham qarab ko`rmaganining natijasida O.Genrining "So`nggi yaproq" deb nomlangan hikoyasining qahramoni Jonsi, nima uchundir keraksiz bir sharfni bo`yniga bog`lash

bilan ovora bo'lib qoladi. Aslida esa, Jonsi bu sharfni bog'lash emas, to'qish bilan mashg'ul bo'lgan edi, asliyat matnidan behabar tarjimon yesa, bunga e'tibor bermasdan, rus tilidagi "vyazat" so'zini "to'qimoq" yemas, "bog'lamoq" deya tarjima qilib qo'yadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tarjima qilingan materialning shaklini semantik ma'lumotlarning mavjud bo'lish yo'li, uning tartiblilik printsipi, mazmunini ifodalash usuli, strukturaviy tarkibi deb atash mumkin.

Ammo she'riy matn uchun shakl nafaqat asarning semantik elementlari ierarxiyasi, til kodining belgilar tizimi, balki she'riyatga xos bo'lgan til atributlari: ritm, qofiya, strofik, unlilar va undoshlar o'rtasidagi munosabatlar, uzunlik, uzunlik. musiqiylik va boshqalar. Tilning bu sifatlari she'riy matnga o'ziga xos tartib bag'ishlaydi, bu esa she'riy matndagi so'zlarni tilga ko'proq qaram qiladi. "Adabiy asardagi so'z har qanday qo'llanishda bir vaqtning o'zida o'zining barcha semantik va uslubiy imkoniyatlarini aniq yoki yashirin shaklda namoyon qilishi mumkin", she'riy matndagi so'z uchun esa "uning tovush moddasi ham seziladigan va muhim bo'lib chiqadi." Shuning uchun aytish mumkinki, she'riy asardagi so'z o'ziga xos sifat va mazmun kasb etadi[3]

She'riyatda biz kontekstlarni tashkil qilish tizimini topamiz: lingvistik kontekst, tasvirlar konteksti, g'oyaviy va hissiy kontekst va so'zning barcha darajalarida: tovush, semantik, grammatik, sintaktik - bu kontekstlarning kesishishi va o'zaro ta'siri qonunlari ishlaydi. So'z bu kontekstlar orqali o'zigina belgilanmaydi, balki qo'shni so'z va kontekstlarga teskari ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham she'riyatda so'zning aloqa mexanizmi amal qiladi.

Shunday qilib, she'riy matn o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, u tarkibiy elementlarni ham o'z ichiga oladi (baytlar soni, baytdagi qatorlar soni va uning tuzilishi, misralar uzunligi, qofiyalarning tabiati, ularning joylashuvi va boshqalar). muhim bo'lgan va odatda tarkib bilan bog'liq. She'riy asarning shakli bo'lgan bu strukturaviy tashkilot tarjimada so'zga va uni tanlashga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Mazmunning bir qismi sifatida shakl mazmunning rivojlanishini va o'zini belgilaydi, chunki badiiy asarning ichki tuzilishi rus tarjima maktabida hukmron xususiyatdir: rus tarjima amaliyotida, odatda, shakl ichida shakl deb ishoniladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan shuni ko'rsatadiki, she'riyatda mazmun semantik elementlarning yig'indisi bo'lib, ularning real faktlar va muallif niyati bilan o'zaro bog'liqligi, shakl esa mazmun elementlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishi, shuningdek, alohida tartiblanganligidir. tuzilishi (she'riyatga xos bo'lgan til belgilari: ritm, qofiya, bayt va boshqalar).[4]

Tarjima nazariyasi uchun shakl va mazmun o'rtasidagi dialektik munosabatni tahlil qilish juda katta amaliy ahamiyatga ega, chunki u tarjima amaliyotining, xususan, she'riy asarlar tarjimasining imkoniyatlarini ochib beradi.

She'r tarjimonidan asl mazmuni tiklash va uning lingvistik ifodasini shakllantirish talab etiladi, tarjimon tarjima qilingan matnning asl matnga ma'lum funksional ekvivalentligiga erishishi kerak.

She'r tarjimasida tarjima faoliyatining eng murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lib, nasr tarjimasidan farq qiladigan alohida tamoyil va mezonlarni talab qiladi. «Bir tomondan, ritm, qofiya, bayt va hokazolarni uzatishga qo'yiladigan talablar, ikkinchi tomondan, so'zlarning nasriy tarjimasida so'zma-so'z aniqlik va semantik aniqlik talablaridan ko'ra, ba'zan keskinroq to'qnash keladi». Ya'ni, she'riy asarlarni tarjima qilishda shakl va mazmun to'qnashuvi ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi va tarjimada mazmun ham, shakl ham takrorlanishi kamdan-kam bo'lgani uchun tarjima "yo'qotishlardan" holi emas.

Odatda shakl mazmun uchun qurbon qilinadi. Biroq, xuddi shu muallif, boshqa tomondan, nasrga tarjima qilingan lirik she'r asl nusxaning adekvat ekvivalenti emasligini ta'kidlaydi. Garchi bunday tarjima kontseptual mazmuni bildirsa-da, u asl nusxaning hissiy boyligi va lazzatini takrorlamaydi va tarjimonga nafaqat ma'lumotni etkazish, balki tarjimini o'quvchida o'quvchida bo'lgani kabi, taxminan bir xil kayfiyatni yaratish vazifasi ham qo'yiladi.

### **XULOSA**

Tarjima jarayonida tarjimon son-sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladi. Bu kabi holatlar tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli, mutarjimdan har bir muammoli holat yechimiga ijodiy ravishda yondashuvni talab qiladi. Asliyatga ijodiy munosabatda bo'lish tarjimada asosiy ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi [5. 334-b]. Tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki tarjimini san'at darajasiga ko'tarish uchun avvalo adabiyotni, she'riyatni ixlos, muhabbat, fidoiylik bilan bilish va sevish kerak [6. 12-b]. She'riy tarjimada esa faqatgina til bilish ko'nikmalariga tayanibgina qolmasdan balki, ilhom, qolaversa, tug'ma iste'dod bo'lishi ham muhim unsur ekanligini chuqur anglab yetmog'imiz zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Odilova. G. She'riy tarjima ko'ngil ishi. – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2013.8-son.
2. Zayniyev.B. Dildan to'kilgan durlar. –T.:Navro'z 2018.92b.
3. Bushy A. Rus tilida o'g'irilgan o'zbek nasrida sharqqa xos musiqiylik poetikasi . Filologiya VIII. – Samarqand: Sam DU, 2007. – B. 15-22.
4. Humbolt V. Tillarning adabiyotga ta'siri va ma'naviy takomil masalalari Rus tilidan Ibodulla Mirzayev tarjimasida Filologiya.
5. Musayev. Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan 2005.352 b.
6. Salomov. G.,. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: Faxrizoda 2003.54 b.

7. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. *Студенческий вестник*, (12-5), 34-35.
8. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=Kochkoro va+&btnG=#d=gs\\_qabs&t=1669701993716&u=%23p%3DsB8MKBYEo2gJ](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Kochkoro va+&btnG=#d=gs_qabs&t=1669701993716&u=%23p%3DsB8MKBYEo2gJ)
9. [https://scholar.google.com/scholar?start=20&q=kochkorova+&hl=ru&as\\_sdt=0,5#d=gs\\_qabs&t=1669702170678&u=%23p%3D\\_3MsL3cMml8J](https://scholar.google.com/scholar?start=20&q=kochkorova+&hl=ru&as_sdt=0,5#d=gs_qabs&t=1669702170678&u=%23p%3D_3MsL3cMml8J)
10. [https://scholar.google.com/scholar?start=30&q=%D1%83%D0%B7%D0%BB%D1%83%D0%BA%D1%81%D0%B8%D0%B7+%D1%82%D0%B0%D1%8A%D0%BB%D0%B8%D0%BC&hl=ru&as\\_sdt=0,5#d=gs\\_qabs&t=1669703070312&u=%23p%3DI1eAQ83rys4J](https://scholar.google.com/scholar?start=30&q=%D1%83%D0%B7%D0%BB%D1%83%D0%BA%D1%81%D0%B8%D0%B7+%D1%82%D0%B0%D1%8A%D0%BB%D0%B8%D0%BC&hl=ru&as_sdt=0,5#d=gs_qabs&t=1669703070312&u=%23p%3DI1eAQ83rys4J)
11. <http://www.gejournal.net/index.php/IJRCIESS/article/view/538/501>
12. <http://www.gejournal.net/index.php/IJRCIESS/article/view/509/475>

